



ISSN 3093-8961

www.humansciences.uz

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI
JOURNAL OF HUMANITIES
ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

2026

2-JILD | 2-SON

HUMANSCIENCES.UZ

№ 2 (2)-2026

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00 – TARIX FANLARI

Rajapov Mardonbek Qosimboy o'g'li
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: mardonbekoff@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5245-6021

Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich
Tarix fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: bahrom_bek@mail.ru
ORCID: 0000-0002-1266-1557

Saidboboyev Zokirjon Abdulkarimovich
Tarix fanlari nomzodi (Ph.D.). Professor.
E-mail: zsaidboboev@yahoo.com
ORCID: 0009-0008-3960-2427

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Urdushev Xamrakul
Iqtisodiyot fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: x.urdushev@gmail.com
ORCID: 0000-0003-4984-0214

Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bahriddin.bfa@gmail.com
ORCID: 0000-0001-8591-6840

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: anvaravlokulovz@gamail.com
ORCID: 0000-0002-6683-8995

Norov Asror Egamberdiyevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc).
E-mail: a.norov@ilmiy.uz

Ostonokulov Azamat Abdulkarimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: a.ostonokulov@tsue.uz
ORCID: 0000-0003-2792-3174

Rustamova Sayyora Xatamovna
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). V.b Dotsent.
E-mail: rustamova0302@mail.ru

Shadiyev Xamid Azimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: su9795744@gmail.com

Nasirov Egamkul Ismailovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: e.nosirov@tsue.uz
ORCID: 0000-0002-9355-1973

Kuliboev Azamat Shonazarovich
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
E-mail: azamatkuliboyev@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3357-070X

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Turdiyev Bexruz Sobirovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bekiuz0302@yahoo.com
ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3260-3327>

Bekbaev Rauf Rustamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: rauf.r.bekbaev@gmail.com
ORCID: 0000-0001-5072-3379

Yusubov Jaloliddin Kadamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: yusubovjaloliddin@gmail.com
ORCID: 0009-0003-1401-7997

Yuldashev Nurbek Normurodovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta ilmiy xodim.
O'zbekiston.
ORCID: 0000-0002-4628-8789

Eshnazarova Farida Jo'raqulovna
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: faridaeshnazarova4@gmail.com
ORCID: 0009-0000-2496-4443

Parpiyev Muxammadjon Tolibovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
ORCID: 0009-0000-1869-9348

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Absalamova Gulmira Sharifovna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.

E-mail: gulmirasharifovna@gmail.com

ORCID: 0009-0005-6105-4752

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna
Filologiya fanlari nomzodi. Dotsent.

E-mail: salaxiddinovamusharraf@gmail.co

ORCID: 0000-0003-0534-5633

Ravshan Turakulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Professor.

E-mail: docravshanniyazov@gmail.com

ORCID: 0000-0002-6146-1789

Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.

O'zbekiston.

E-mail: z.sanakulov@cspu.uz

ORCID: 0000-0002-6952-7738

Bawetdinov Muxammeddin Kazimbekovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

E-mail: b_muxammed@karsu.uz

ORCID: 0009-0007-9826-175X

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Ixombekov Jasurbek Ilxombek o'g'li
Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Katta o'qituvchi. E-mail: jafarbek22@mail.ru

ORCID: 0000-0002-9867-3363

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.

E-mail: bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru

ORCID: 0000-0002-2208-7827

Erkulova Feruza Melikuziyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.

E-mail: feruzaerkulovauzb@gmail.com

Shirnazarova Zamira Allaberdiyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). E-mail: zamira.sh@terdpi.uz

ORCID: 0000-0001-9870-6295

Oymatova Nilufar Mirjamolovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). E-mail: nilufar.oymatova@gmail.com

Eshchanova Xolida Xudayarovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). E-mail: eshchanovaxolida@gmail.com

Karshieva Dilbar Eshpulatovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.

E-mail: d.karshiyeva1986@gmail.com

Raxmatov Otabek Urinbosarovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). E-mail: rahmatov.otabek@inbox.ru

ORCID: 0000-0003-1288-3042

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR

Turayev Abrar Saloxiddinovich
Siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Dotsent. E-mail: ijtimoiy2017@mail.ru

ORCID: 0000-0003-1741-6857

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron
jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron
manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

Sharipov Sherzod

RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA YOSHLARNI ISH BILAN
BANDLIGINI TA'MINLASHDA KASBIY TA'LIM TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISH:
XALQARO TAJRIBA VA KELAJAK KASBLARI MISOLIDA 5-8

FALSAFA FANLARI

Uraqov Nodirbek

MAHDUMI A'ZAMNING "SHARXI YAK GAZALI UBAYDULLOXON" RISOLASIDA
BAG'RIKENGLIK G'OYALARINING TASAVVUFIIY FALSAFIIY TAHLILI 9-13

PEDAGOGIKA FANLARI

Burxonova Muxlisa

O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIKlardagi Badiiy Matnlarni O'qitish Orqali
O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH 14-17

Xalikova Guli

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIIY QADRIYATLARNI
SHAKLLANTIRISHDA MULTFILMLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI 18-22

PSIXOLOGIYA FANLARI

Jo'rayeva Sohibjamol

ZAMONAVIIY PEDAGOGNING IJTIMOIIY TIPLARI 23-29

Тиллашайхова Хосият

ОСОБЕННОСТИ МОТИВАЦИОННО-ЦЕННОСТНОЙ СФЕРЫ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ
СТАНОВЛЕНИИ СТУДЕНТОВ 30-34

Кадирова Наргиза

СОВРЕМЕННЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К ЛИЧНОСТИ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ
КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГА 35-39

Toshmatov Boboxon

UYALI ALOQA VOSITALARINING INSON RUHIYATIGA TASIRINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI 40-43

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA MULTFILMLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Xalikova Guli Tashtemirovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
"Umumiy pedagogika" kafedrası o'qituvchisi,
psixologiya fanlari bo'yicha (PhD)
Tel: + 998 97 784 28 82

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy axborot makonida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvi va shaxs sifatida shakllanishida turli omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, multfilmlar bolalar uchun nafaqat ko'ngilochar vosita, balki ularning axloqiy tasavvurlari, ijtimoiy xulq-atvori hamda qadriyatlar tizimini shakllantirishga ta'sir etuvchi psixologik-pedagogik resurs sifatida qaralmoqda. Tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, bu yosh davrida bola atrofdagi voqelikni ko'proq obrazlar, qahramonlar va hissiy tajribalar orqali anglaydi. Shu sababli multfilm syujetlari va personajlari bolalarning empatiya, hamdardlik, yordamchanlik kabi axloqiy sifatlarini rivojlantirishda samarali vosita bo'la olishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha yoshdagi bolalar, multfilm, syujetlar, qahramonlar, empatiya, axloqiy me'yorlar, salbiy xulqiy stereotiplar, fantastik, hajviy, sarguzasht, ertak, o'qitish yoki rivojlantirish, animatsion mahsulotlar.

POSSIBILITIES OF USING CARTOONS IN THE FORMATION OF MORAL VALUES IN PRESCHOOL CHILDREN

Xalikova Guli Tashtemirovna

Lecturer of the Department of "General Pedagogy" of the
National Pedagogical University of Uzbekistan named after Nizami,
Doctor of Psychological Sciences (PhD)

Annotation. In the article, various factors play an important role in the socialization and formation of preschool children as individuals in the modern information space. In particular, cartoons are considered not only as a means of entertainment for children, but also as a psychological and pedagogical resource influencing the formation of their moral imagination, social behavior, and a system of values. Studies have shown that at this age, the child perceives the surrounding reality more through images, characters, and emotional experiences. For this reason, it is highlighted that the plots and characters of cartoons can be an effective means of developing the moral qualities of children, such as empathy, compassion, and helpfulness.

Keywords: preschool children, cartoons, plots, characters, empathy, moral norms, negative behavioral stereotypes, science fiction, satire, adventure, fairy tale, teaching or development, animated products.

DOI: <https://doi.org/10.47390/hum-i2v2y2026/n04>

KIRISH. Maktabgacha yosh davri axloqiy tushunchalarning boshlang'ich shakllanish bosqichi hisoblanadi. Bu davrda bola "yaxshi" va "yomon", "to'g'ri" va "noto'g'ri" kabi kategoriyalarni asosan kattalarning bahosi va kuzatilayotgan xatti-harakatlar orqali o'zlashtiradi. Multfilmlar esa ana shu jarayonda modellovchi muhit vazifasini bajaradi. Qahramonlarning ijobiy yoki salbiy xatti-harakatlari, ular boshidan kechirayotgan voqealar va yakuniy natijalar bolaga xulq-atvor oqibatlarini tushunishga yordam beradi. Ayniqsa, ijobiy

qahramonlar orqali berilgan namunalar bolada identifikatsiya va taqlid mexanizmlarini faollashtiradi.

Psixologik nuqtai nazardan qaraganda, multfilm tomosha qilish jarayonida bola hissiy jihatdan voqealarga jalb etiladi. Bu esa empatiya rivojiga zamin yaratadi. Bola qahramonning quvonchi yoki qayg'usini his qilish orqali boshqalarning holatini tushunishga o'rganadi. Natijada axloqiy qaror qabul qilish jarayonida hissiy omillar muhim rol o'ynay boshlaydi. Shu jihatdan multfilmlar ijtimoiy-psixologik tajriba maydoni sifatida xizmat qiladi.

Biroq multfilmlarning ta'siri mazmun va sifatga ham bevosita bog'liq. Zo'ravonlik elementlari kuchli bo'lgan yoki axloqiy me'yorlar noaniq tasvirlangan kontent bolalarda salbiy xulqiy stereotiplarni shakllantirishi mumkin. Shuning uchun pedagoglar va ota-onalar multfilm tanlashda yosh xususiyatlari, milliy qadriyatlar hamda tarbiyaviy maqsadlarni inobatga olishlari lozim. Ilmiy yondashuv shuni ko'rsatadiki, tarbiyaviy mazmunga ega, ijobiy syujetli multfilmlar bolalarda hamkorlik, do'stlik va mas'uliyat kabi tushunchalarning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotimizda maktabgacha yoshdagi bolalarga nisbatan multfilmlarning gedonistik ta'sirini, ya'ni hozirgi axborot, texnologiya va murakkab globallashuv sharoitida oila institutini omon saqlash – millatimizning hayot-mamoti, qismati masalasiga aylangan. Mamlakatimizda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish maqsadida 2020 yil fevralida Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash Vazirligi tashkil etildi. G'arb va Sharqning oilaviy an'ana va qadriyatlari bir-biridan ancha farq qiladi. Biz bolajon, oilaparvar xalqimiz, o'z navbatida, shuni unutmash lozimki, bugungi globallashuv jarayonda gegemonlik mavjud, u jadallashib borgan sari milliy ma'naviyatga, jumladan, oilaga nisbatan xavf-xatar va tahdidlar oshib boraveradi. Shu bois, ta'lim va tarbiya, oila va an'analar tizimi sifatini oshirish hamda o'zaro uyg'unligini ta'minlash barcha sinov va imtihonlardan omonlikda o'tishning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Multfilmlarning ta'limiy ta'siri o'rganganimizda, hozirgi kunda aksariyat multfilmlar g'arb madaniyatini ilgari suruvchi syujetlarni tashkil qiladi. Shunisi achinarliki, deyarli barcha yosh avlod mana shu multfilmlarni sevib tomosha qilmoqdalar. Ayniqsa, multfilm qahramonlari voqelikka mos kelmaydigan, nomutanosib tana tuzilishlariga ega. Buning natijasida ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar ongiga ma'nan va axloqan buzuvchi g'oyalarni targ'ib qiluvchi, sevgi – muhabbatni targ'ib qiluvchi animatsion mahsulotlardir. Millatimizning etnik xususiyatiga aloqador, milliy qadriyatlar asosi yug'rilgan Multfilmlarmizni ahamiyati yoqolib bormoqda. Masalan o'zimizning "Zumrad va qimmat" multfilmimizda bosh qahramon Zumrad roli orqali bizning bolalarimiz odob va axloq tushunchalarini kognitiv va hissiy komponentlarini o'zlashtirib borsa, "Qimmat" roli orqali axloqning ijobiy va salbiy xususiyatlarini farqlash orqali xulq-atvor tuzilmalarini o'zida rivojlantirib boradi.

Ijtimoiy kompensatsion ta'sirlar animatsion mahsulotlarni hozirgi globallashuv jarayonida bolalar ongiga salbiy va ijobiy ta'sirlarini hamda evristik ta'siri, ya'ni, bolalarda tafakkur jarayonlarini rivojlantirib boruvchi animatsion mahsulotlarni tomosha qilish orqali voqealar rivojini ham matematik, ham intuitiv jihatdan anglash, muammolarni ko'plashib hal etishni o'rganadi. Bizning ishimizda bolalar uchun telekanallarning ta'limiy funksiyasi alohida qiziqish uyg'otdi. Bolalar telekanallarining maqsadli auditoriyasi nuqtai - nazaridan juda qulay bo'lgan ushbu namoyishlar ularning mazmunini ko'rgandan so'ng biroz o'zgardi, chunki

multfilmlarning (va boshqa teleko'rsatuvlarning) badiiy darajasi ham ilmiy manbalarni tahlil qilishda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun multfilmlarga qo'yiladigan talablarga ularning ta'lim shakllari har doim ham mos kelavermaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan suhbat natijalariga ko'ra empirik namunadagi multfilmlar bolalar o'rtasida efirlarni ko'rishda katta afzalliklarga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Shuning uchun, biz animatsion filmlarni tomosha qilishda bolalarning afzalliklarini aniqlashga va savolga javob berishga e'tibor qaratdik - ular maktabgacha yoshdagi bolalar axloqiy tushunchalarining turli tarkibiy qismlari shakllanishiga qanday ta'sir qiladi. Bolalar bilan suhbat natijasida multfilmlar ro'yxati tuzildi, biz ularni bir nechta asoslar bo'yicha multfilmlarni tasniflash mezonlarini tanlash bilan tahlil qildik:

Tadqiqotimizda bolalar xardoim sevib tomosha qiladigan Multfilmlarning syujetlari va ularning bolalarga bo'lgan ta'siri hamda ahamiyati haqida quyidagilarni bayon etdik.

Fantastik - Bugungi kunda maktabgacha yoshidagi bolalarning fantastik janrdagi animatsion mahsulotlarni ko'rishni afzal ko'radilar. Bunga sabab bu mahsulotlar zamonaviy, hat tarzimizdagi bolalar qiziqishlari yuqori bo'lgan texnika mahsulotlari (telefon, planshet, gadjet va x.k.) bilan bog'liq va motivasion xarakterga ega. Chunki xar bir multfilmning asosiy g'oyasi qahramonlarning xatti-harakatlari bilan bog'liq. Bu yoshda bolaning psixikasida o'ta-onasiga o'xshagan katta inson bo'lib qolish va mustaqil harakatlari orqali xammaga o'zini ko'rsatib qo'yish ya'ni bosh qahramonlarning qiyofasida bo'lib qolish, ularga taqlid qilish va hatti-harakatlarini identifiatsiya qilish bilan karakterlanadi. Masalan "o'rgimchak odam" qiyofasi: u film boshidan to oxiriga qadar barcha taziqlarga qaramasdan tirik qolib insonlarni yominliklardan qutqaradi. Bu esa bolalarda dunyoni qutqarish, odamlarga yaxshilik qilish kabi axloqiy tushunchalarni shakllaniga xizmat qiladi. Lekin, boshqa tarafdin esa bunday harakatlar real voqeelikka qarama-qarshi xarakterga ega.

Hajviy - Hajviy syujetga ega bo'lgan animatsion mahsulotlar bolalarda «samimiylilik», «mehribonlik», «quvnoqlik», «barchaga teng yaxshi munosabatda bo'lish» kabi axloqiy tushunchalarni rivojlantirib boradi. Salbiy taraflari esa, masalan «Masha va Ayiq» multfilmi bolalarda «qaysarlik», «o'zbilarmonlik», «kattalarga quloq solmaslik» kabi bolalarda salbiy axloqiy tushunchalarni shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Sarguzasht - Bunday Multfilmlar bolaning kognitiv, hissiy va xulq-atvor komponentlari rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Sababi multfilm bosh qahramonlarining xatti-harakatlari, ya'ni, muammolarni individual va jamoaviy tarzda yengib o'tishi, kognitiv sohalariga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Shuningdek bolalarda Vatanga, yurtga va millatiga bo'lgan «sodoqat», «mardlik», «iftihor» va «g'urur» hislatlarini shakllantirib boradi.

Ertak - Bunday janrdagi mahsulotlar bolalarda «jamo bo'lib yomonlikka qarshi ko'rashish», «to'g'ri so'z», «barchaga birdek yaxshilik qilish», «yomonlikka nisbatan ham yaxshilik bilan javob qaytarish» va ularning kelajakdagi hayotida uchraydigan qiyinchiliklarga irodali bo'lish hamda yaxshi kunlar kelishiga umid bilan yashash kabi axloqiy tushunchalarni rivojlantirib boradi.

O'qitish yoki rivojlantirish - Bunday multfilmlar bolalarning kognitiv, hissiy va xulq-atvor komponentlari rivojlanishiga juda katta ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Masalan «To'g'rivoy va Egrivoy» multfilmini olsak, undagi qahramonlar To'g'rivoy qiyofasi xar doim insonlarga «yaxshilik qilish», «rostgo'ylik», «irodalilik», «to'g'ri qaror qabul qilish», «kattalarga xurmat -

kichiklarga izzat”, “ota-onasi va yaqinlariga mehribon bo’lish”, “yurtiga va xalqiga sodiq inson bo’lish” kabi xususiyatlari shakllanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

To’liq qismli multfilmlarni tomosha qilish ko’pincha, bolalarda charchoq alomatlari yoki haddan tashqari qo’zg’alish belgilari bilan namoyon bo’ladigan emotsional charchoq holatini keltirib chiqarishini ko’rsatdi. Axborotning xilma-xilligi bilan farq qiluvchi ko’p cyepiyali multfilmlar bolani kamroq charchatadi. Ammo, cyepiya ko’pincha eng qiziqapli joyda tugashi natijasida bolada salbiy his-tuyg’ularni keltirib chiqaradi, syujetning asosiy g’oyasi bir qator qo’yilgan ma’no ikkinchisini kutib qisman unutiladi va ma’nosini yanada qiyinroq idrok etish mumkin. Shunday qilib, har ikkala turdagi multfilmlar - to’liq qismli va ko’p qismli - o’ziga xos salbiy ta’sirga ega, ammo bizning fikrimizcha multfilm-ko’p qismlining ta’siri kamroq zararli, chunki maktabgacha yoshdagi bolani serial (pauzalar bilan) ko’rish kamroq charchatadi. Ko’p soatlik televizor ko’rishning bolalarga salbiy ta’siri dissertatsiyaning birinchi bobida tegishli tadqiqotlar tahlilida qayd etilgan. Umuman olganda, biz bolalarning «to’liq qismli - ko’p qismli» asosidagi multfilmlarni ko’p qismli foydasiga afzal ko’rishlarini ijobiy hodisa deb hisoblaymiz, chunki qoida tariqasida har bir cyepiya alohida ma’naviy to’qnashuvga ega bo’lgan alohida hikoyani o’z ichiga oladi, shu bilan birga bolalarga bitta to’liq qismli multfilmni tomosha qilishdan ko’ra ko’proq hissiy va axloqiy tajriba to’plash imkonini beradi.

Bolalar multfilm qahramonlari muammoni o’zi mustaqil hal qilishiga asoslangan multfilmlarni o’zlarining sevimli filmlari deb atashdi. Ehtimol, bu natijalar respodentlarning maktabgacha ta’lim muassasalarida tengdoshlar jamoasida ko’proq vaqt sarflashlari, birgalikdagi faoliyatda tajriba va ko’nikmalarning yetishmasligi kundalik tajribasi bilan bog’liq ekanligi bilan izohlashimiz mumkin.

Bunday animatsion mahsulotlarda ba’zi qahramonlar haqiqiy bo’lmagan tasvirga ega, tana qismlari buzilgan, ammo bu o’zgarishlarning sabablari multfilmda tushuntirilmagan, navbatdagi qiyofada esa multfilmlarning barcha qahramonlari tasviri realdir. Ehtimol, g’ayritabiiy ko’rinishga ega bo’lgan qahramonlar bilan multfilmlarning jozibasi, ularni tomosha qilish uchun qiziqapliroqdir. Ular bolalarning tanasidan farq qiladi, ba’zilari qandaydir noyob qobiliyatga ega, ammo boshqa tomondan bu tana tasvirning shakllanishiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. Shubhasiz, qiyofasi insondan uzoq bo’lgan qahramonlar buning uchun kamroq imkoniyatlar yaratadi.

Pedagogik amaliyotda multfilmlardan maqsadli foydalanish samaradorlikni yanada oshiradi. Masalan, multfilm tomosha qilingandan so’ng suhbat, rolli o’yinlar yoki muhokamalar tashkil etish orqali bolalar ko’rgan voqealarni tahlil qilishga undaladi. Bu jarayon bolalarning nutqiy faolligini rivojlantiradi, axloqiy tushunchalarni ongli ravishda anglashga yordam beradi hamda ijtimoiy tajribani boyitadi.

Xulosa qilib aytganda, multfilmlar maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy tushunchalarni shakllantirishda muhim omillardan biri bo’lib, ular orqali bolalar ijtimoiy munosabatlarni anglaydi, hissiy tajriba orttiradi va xulqiy me’yorlarni o’zlashtiradi. Biroq bu jarayonning samaradorligi kontent tanlash, pedagogik yondashuv va kattalarning yo’naltiruvchi roliga bevosita bog’liqdir. Shu bois multfilmlarni tarbiyaviy vosita sifatida ilmiy asosda qo’llash maktabgacha ta’lim tizimida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar/Литература/References

1. Andreeva G.M. Psixologiya sotsialnogo poznaniya. – M., 1997.
2. Avdeeva N.N. va boshq. Razvitie lichnosti na raznyx etapax ontogeneza.

3. Davletshin M.G., Do'stmuxamedova Sh., Mavlonov M., Tuychieva S. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. TDPU, 2004.
4. Galdieva M.D. Boshlang'ich sinf bolalarida axloqiy tushunchalarni shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. PhD diss., 2023.
5. G'oziyev E.F. Taraqqiyot psixologiyasi. – T.: Universitet, 1999.
6. Jabborov X.X. Sharq mutafakkirlari ishlarida axloqiy tushunchalarni shakllanishi masalasi. JDPU, 2023.
7. Jabborov X.X. Axloqiy tushunchalarni shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, 2022.
8. Jabborov X.X. Yoshlarda axloqiy tushunchalarni shakllanishining psixologik qonuniyatlari. Oriental Renaissance jurnal.
9. Jumanazarova D. Axloqiy tushunchalarni shakllanishimizdagi yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarimiz. – T.: Fan, 2009.
10. Kozlovskaya N.A., Morozova I.S. Formirovanie nравstvennyx chuvstv kak determinant razvitiya lichnosti. Integratsiya obrazovaniya, 2007.
11. Muxina V.S. Detskaya psixologiya. – SPb.: Prosvesheniye, 1992.
12. Muxina V.S. Vozrastnaya psixologiya. – M., 2015.
13. Nishanova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi. – T.: TDPU, 2017.
14. Norbosheva M. Maktabgacha ta'limda psixodiagnostika. – T., 2013.
15. Qambarova D.S. Barkamol avlod tarbiyasi ta'lim samaradorligini oshirish omili sifatida. Zamonaviy ta'lim, 2020.
16. Quronov M. O'zbekiston maktablarida axloqiy tushunchalarni shakllanishining ilmiy-pedagogik asoslari. Diss., 1998.
17. Quronov M.Q. Axloqiy tushunchalarni shakllanishi. – T.: Ma'naviyat, 2007.
18. Umarova Z.A. Boshlang'ich ta'limda axloqiy tushunchalarni shakllanishi asoslari. 2021.
19. Vygotskiy L.S. Psixologiya razvitiya cheloveka. – M., 2005.
20. Zaporozec A.V. Vospitanie emotsiy i chuvstv u doshkolnika. – M., 1985.

HUMANSIENCES.UZ

№ 2 (2)-2026

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com